

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.22.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

XADIYATULLAYEV ZIYODULLO SHUXRATILLAYEVICH

**YUQORI MALAKALI BOKSCHI QIZLARNING MAXSUS JISMONIY
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xadiyatullayev Ziyodullo Shuxratillayevich

Yuqori malakali bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini
takomillashtirish metodikasi.....5

Хадиятуллаев Зиёдулло Шухратиллаевич

Методика совершенствования специальной физической подготовки
высококвалифицированных девушек-боксерок.....27

Khadiyatullayev Ziyodullo Shukhratilayevich

Methodology for improving the special physical training of highly qualified boxing
girls.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.22.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

XADIYATULLAYEV ZIYODULLO SHUXRATILLAYEVICH

**YUQORI MALAKALI BOKSCHI QIZLARNING MAXSUS JISMONIY
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped.3723 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning (www.uzdjtsu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tajibayev Soyib Samijonovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Allamuratov Shuhratulla Inoyatovich
biologiya fanlari doktori, professor

Serebryakov Yuriy Vladimirovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.22.2022.Red.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” “_____” soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76, veb-sayt www.uzdjtsu.uz, e-mail:uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti A bino 11-audiotoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “___” _____ da raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

X.X.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida xotin-qizlar sporti nazariyasi va uslubiyati sohasida, jumladan, o'smir bokschi qizlarni musobaqalarga tayyorlash, mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish, mashg'ulotlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Biroq, mutaxassislar va olimlar tomonidan bokschi qizlarni musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichi va davrlarida o'tkaziladigan mashg'ulot jarayonlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Ayniqsa, o'smir bokschi qizlarning musobaqaoldi tayyorgarlik jarayonida qo'llaniladigan mashg'ulotlar ilmiy asosda yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu kamchilik, o'z navbatida, o'smir sportchilarni tayyorlash tizimida o'z yechimini kutayotgan muhim vazifalardan biri sifatida saqlanib kelmoqda. Ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning zarurati shundan iboratki, o'smir qizlar organizmining o'ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish mashg'ulot jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish ularning sportdagi yutuqlarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida qizlar boksi nazariyasi va metodologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'plab muhim ilmiy natijalarni bergan. Bokschi qizlarning jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ularning harakat tizimini siklik harakatlarga moslashtirish nazariy va metodologik asoslari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar ham muhim xulosalarni taqdim etgan. Biroq, yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqaoldi tayyorgarligida mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish masalasi va maxsus jismoniy tayyorgarlikni ilmiy asosda rejalashtirishga qaratilgan tadqiqotlar etarlicha rivojlanmaganligi hanz ham hal etilishi kerak bo'lgan dolzarb muammo sifatida qolmoqda.

Respublikamizda yoshlar o'rtasida boksga bo'lgan qiziqishning ortib borishi natijasida iqtidorli sportchilarni kashf qilish va ularni saralash (seleksiya) jarayonini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ayollar boksi rivojiga oid uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. "Ayollar boksini rivojlantirish yuzasidan uzoq yillarga mo'ljallangan istiqbolli rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish"¹, bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, jismoniy va funksional holatini yuqori darajada saqlab qolish eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Biroq, yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqaoldi tayyorgarligida mashg'ulot yuklamalarining shiddati va hajmini aniqlash, me'yorlarini belgilash va ularni optimallashtirish borasida ilmiy asoslangan uslublar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Yuqori malakali bokschi qizlarning tayyorgarligi tizimida, jumladan, ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining davrlari va bosqichlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik omillar asosida mashqlarni rejalashtirish, shuningdek, mashqlar hajmi, shiddati va nisbatini to'g'ri tanlash masalalari ham yetarlicha o'rganilmagan.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-sonli "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori. <https://lex.uz>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-son “Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son “Sport ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 1-iyundagi VM-279-son “O‘zbekistonda boksni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlar doirasiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muoammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuga doir bugungi kunda, respublikamizning bir qator olimlari R.D.Xalmuxamedov, S.S.Tajibayev, V.N.Shin, F.K.Turdiyev, Yu.V.Serebryakov, G‘.Q.Rajabov, D.A.Aliyeva, Q.A.Umarov yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish masalasini hamda o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish va yuqori malakali bokschilarning musobaqalardagi faoliyatining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida A.M.Xodorovich, A.A.Maksimova, A.R.Radzievskiy, L.G.Shaxlina, T.S.Soboleva, B.I.Butenko, Yu.V.Verxoshanskiy, V.M.Klevenko, T.S.Saxtaganov, I.P.Degtyarev, V.V.Lisitsin yuqori malakali ayol bokschilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlashga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, I.A.Sashenko esa ayollar boksida sportchilarni tayyorlash jarayonida tiklanish va ishlash qobiliyatini oshirish usullarini tadqiq etgan³.

Xorijiy olimlar ilmit izlanishlarida 15-18 yoshli bokschi qizlarning maxsus

²Р.Д.Халмухамедов Технология оптимизация учебно-тренировочного процесса единоборцев. Монография .- Ташкент. 2009. -158 с., С.С.Тажобаев Ўсмир яккакурашчиларнинг комплекс тайёргарлигида харакатли ўйинларни кўллаш методикасини илмий-педагогик асослаш. Автореф. дис....док.пед.наук.- Ч. 2019. -74 б., В.Н.Шин Технология планирования подготовки боксеров. Учебное пособие. – Т.: LIDER PRESS, 2008. -158 с., Ф.К.Турдиев Бокс тренерларининг индивидуал дарс олиб бориш жараёнидаги махсус малакаларини шакллантириш Автореф. дис.... к.п.н.,Т., 2012. -42 б. Ю.В.Серебряков Турли вазн тоифасидаги боксчиларнинг мусобақа олди тайёргарлик босқичидаги машгулот юкламаларини оптималлаштириш Автореф. дис.... док.фил. пед. наук. (PhD). Ч., 2021. -36 б.

³А.М.Ходорович Физиологические особенности реакции кардио-респираторной системы у женщин на функциональные нагрузки: Автореф. Дисс.. кан. Мед. Наук.-М 1993. -16 с. И.А.Сашенко Комплексное применение средства восстановления и повышения работоспособности при подготовки спортсменов в женском боксе. дисс.. к.п.н./Краснодар – 2003. -С. 28-30., А.А.Максимова Методика восстановительного лечения закрытой черепно-мозговой травмы на перимере женщин-боксеров высокой квалификации дисс.. автореф.. к.п.н. 2013. -24с., В.В.Лисицын Техничко – тактическая подготовка высококвалифицированных женщин-боксеров дисс..к.п.н. М. - 2015. -С. 27-28., Т.С.Сахтаганова Специальная психологическая подготовка высококвали-фицированных женщин-боксеров: на примере сборной команды Казахстана. Автореф...дис..к.п.н. 2018. -13с.

jismoniy tayyorgarligini va ularning o'quv mashg'ulot jarayonini rejalashtirish bo'yicha mavjud ma'lumotlarni inobatga olgan holda, mashg'ulot yuklamalarining samarali boshqaruvi hamda ularni muvofiqlashtirish masalalarini tadqiq qilish bo'yicha F.Kreff., M.Konyu, L.Shaxlina, S.Soxa va boshqalar tomonidan o'rganib chiqilgan⁴.

Yuqori malakali bokschi qizlar uchun optimal yuklamalarning ishlab chiqilishi ularning jismoniy va psixologik rivojlanishiga mos keladigan, sog'liqlarini saqlash bilan birga sportdagi mahoratini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Asosiy kamchiliklardan biri shundaki, hozirgi vaqtgacha qizlar boksida sport mahoratini bosqichma-bosqich rejalashtirilgan holda o'sishiga xizmat qiladigan yuklamalarning optimal turlari va nazorat mexanizmlari bo'yicha aniq sonli tavsiyalar mavjud emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining V/33 "Yuqori malakali bokschilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqa faoliyati natijadorligini oshirish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori malakali bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

15-18 yoshli yuqori malakali bokschi qizlarning energiya taminoti zahirasini saqlab qolish uchun sport tayyorgarligi jarayoniga individual fiziologik ko'rsatkichlarini tahlilini kiritish hisobiga ishchanlik qobiliyatini baholash imkoniyatlari aniqlash;

yuqori malakali bokschi qizlar tayyorgarligini oshirish uchun organizmning individual xususiyatlari va funksional holatiga moslashtirilgan maxsus mashg'ulot rejasini ishlab chiqish;

15-18 yoshli yuqori malakali bokschi qizlarning sport mahoratini oshirish va ishchanlik qobiliyatini uzoq muddat saqlab qolish uchun organizmni yuqori shiddatga moslashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish;

yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqa sharoitidan kelib chiqib jismoniy sifatlarini rivojlantirish yurak qisqarish soniga qarab tanlab yo'naltirilgan umumiy va maxsus vositalari bo'yicha mashg'ulot uslubiyatini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Toshkent viloyatida joylashgan Yangiobod boks bazasida shug'ullanuvchi yuqori malakali bokschi qizlarning o'quv-mashg'ulotlar jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarda qo'llaniladigan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, instrumental tadqiqot usullari, pedagogik tajriba, matematik - statistika usullaridan foydalanilgan.

⁴ Kneff F., Konyu M. Гинщина и спорт. - М.: Физкультурам спорта, 1986. -144 с. Soxa S. Женщина и спорт: мозговой штурм ученых - Women and Sport Brain Storming of Scientists. Теория и практика физической культуры. – 1999. - № 6. -С. 2-3. Shaxlina L. Медико-биологические основы спортивной тренировки женьшена. – Киев: Наукова думка, 2001. -237с.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuqori malakali bokschi qizlarning energiya taminoti zaxirasini saqlab qolish uchun mashg'ulotlarning turli kuchlanishli yuklamalaridan kelib chiqib, individual fiziologik ko'rsatkichlar - portlovchi chidamlilik koeffitsenti, portlovchi chidamlilik indeksi, kreatinfosfat ishlash qobiliyati indeksi va tezkor chidamlilik koeffitsenti tahlilini tayyorgarlik jarayoniga kiritish hisobiga ishchanlik qobiliyatini baholash imkoniyatlari kengaytirilgan;

yuqori malakali bokschi qizlar tayyorgarligini oshirish uchun organizmning individual xususiyatlari va funksional holatiga (yillik tayyorgarlik davrlarida ish qobiliyatining tebranish dinamikasini belgilab berish kabi) moslashtirilgan maxsus mashg'ulot rejasini ishlab chiqish hisobiga musobaqa oldi va musobaqadan keyingi davrlarda ish qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatlari kengaytirilgan;

yuqori malakali bokschi qizlarning sport mahoratini oshirish va ishchanlik qobiliyatini uzoq muddat saqlab qolish uchun organizmni yuqori shiddatga (yuklamalarga bosqichma-bosqich readaptatsion moslashish ko'rsatkichlari bo'yicha) moslashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish hisobiga adaptatsiya imkoniyatlari va maxsus jismoniy tayyorgarlikni to'liq namoyish qilish jarayoni optimallashtirilgan;

yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqa sharoitidan kelib chiqib jismoniy sifatlarni rivojlantirishda yurak qisqarish soniga qarab tanlab yo'naltirilgan umumiy va maxsus vositalar (ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan vositalarning nisbati hamda turli xil muvofiqlashtirish murakkabligidagi yuklamalarni taqsimlash kabi) mashg'ulot uslubiyatini ishlab chiqish hisobiga sportchilarni musobaqalarga maqsadli tayyorlash jarayoni takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqaoldi mashg'ulotda texnik-taktik tayyorgarligida ular organizmining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv-mashg'ulotlar yuklamalarining qo'llash uslubiyati ishlab chiqilgan;

tadqiqotdan olingan ilmiy-uslubiy tavsiyalarni musobaqaoldi tayyorgarlikning turli bosqichlarida malakali bokschi qizlarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini oshirishda, o'quv-mashg'ulotlar jarayonida foydalanish samaradorligi pedagogik tajribada asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Pedagogik tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi metodologiyasi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasida respublikamiz va boshqa yurt olimlari hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan amaliyotchi murabbiylarni fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi hamda tahlil va tadqiqot vazifasining son va sifat jihatidan taminlanganligi, tajriba-sinov ishlarining bir-biriga mutunosibliigi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil usublari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Xulosa, taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi, joriy etish dalolatnomalari mavjudligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish va nazorat qilish jarayonini

optimallashtirish asosida boks sport mashg'uloti tizimini keyinchalik ham takomillashtirish uchun yuqori malakali bokschi qizlarni o'quv-mashg'ulot jarayonini boshqarish imkoniyatlari to'g'risidagi nazariy tasavvurlarni kengaytirishga imkon berishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, mashg'ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirish va nazorat qilish uslubiyati ishlab chiqilib tajribada sinaldi. Ushbu uslubiyat quyidagi imkoniyatlarni yaratadi. Bokschi qizlarni tayyorlash amaliyotida qo'llanilishi mutaxassislariga sportchilarning musobaqaoldi tayyorgarlik o'quv-yig'ini mashg'ulotlar rejasi mazmunini to'g'ri tuzishga imkon beradi. Bokschi qizlar sport natijalarining ishonchli o'sishiga, sportda erishilgan natijalarni uzoq muddat ushlab qolishga yordam beradi hamda o'zidagi bor imkoniyatlarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori malakali bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

yuqori malakali bokschi qizlarning energiya taminoti zahirasini saqlab qolish uchun mashg'ulotlarning turli kuchlanishli yuklamalaridan kelib chiqib, individual fiziologik ko'rsatkichlar - portlovchi chidamlilik koeffitsenti, portlovchi chidamlilik indeksi, kreatinfosfat ishlash qobiliyati indeksi va tezkor chidamlilik koeffitsenti tahlilini qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston milliy terma jamoasi bokschi qizlarining o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-dekabrda 03-16/12729-sonli ma'lumotnoma) va qayd etilgan natijalar quyidagicha: 15-16 yoshli bokschi qizlarda berilgan zarbalar aniqligi 22,80% ga, 17-18 yoshli bokschi qizlarda 17,95% ga o'sgan;

yuqori malakali bokschi qizlar tayyorgarligini oshirish uchun organizmning individual xususiyatlari va funksional holatiga (yillik tayyorgarlik davrlarida ish qobiliyatining tebranish dinamikasini belgilab berish kabi) moslashtirilgan maxsus mashg'ulot rejasi O'zbekiston milliy terma jamoasi bokschi qizlarining o'quv-yig'in mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-dekabrda 03-16/12729-sonli ma'lumotnoma). Natijada, 15-16 yoshli bokschi qizlarning yuqori kuchlanishda bergan zarbalari 14,70% ga, 17-18 yoshli bokschi qizlarda esa 7,82% ga oshgan;

yuqori malakali bokschi qizlarning sport mahoratini oshirish va ishchanlik qobiliyatini uzoq muddat saqlab qolish uchun organizmni yuqori shiddatga (yuklamalarga bosqichma-bosqich readaptatsion moslashish ko'rsatkichlari bo'yicha) moslashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimi O'zbekiston milliy termasi jamoa bokschi qizlarining o'quv-yig'in mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-dekabrda 03-16/12729-sonli ma'lumotnoma). Natijada, 15-16 yoshli bokschi qizlarning past kuchlanishda berilgan zarbalar 13,08 % ga, 17-18 yoshli bokschi qizlarning qayd etgan natijalari 12.36% ga yaxshilangan;

yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqa sharoitidan kelib chiqib jismoniy sifatlarni rivojlantirishda yurak qisqarish soniga qarab tanlab yo'naltirilgan umumiy va maxsus vositalar (ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan vositalarning nisbati hamda turli xil muvofiqlashtirish murakkabligidagi yuklamalarni taqsimlash kabi)

mashg'ulot uslubi O'zbekiston milliy terma jamoasi bokschi qizlarini musobaqalarga maqsadli tayyorlash jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 11-dekabrda 03-16/12729-sonli ma'lumotnoma). Natijada, zarbalar aniqligi 20,31% ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 8 ta ilmiy ishlar turli davriy nashrlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta maqola (2 ta respublika va 2 ta xorijiy) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, 124 sahifali matnni tashkil etib, 12 ta jadval, 3 ta rasm, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Yakkakurashchilarni tayyorlashda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishning ilmiy pedagogik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yakkakurashchilarni tayyorlashda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishning ilmiy pedagogik asoslari, jismoniy yuklamalarining hotin-qizlar organizimiga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari qizlar organizimining mashg'ulot yuklamalariga bardoshlilik hamda yuklamalarga moslashuvchanlik, yakkakurashchi qizlarning yillik tayyorgarlik siklining o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu davrda mashg'ulotlarni samarali tashkil qilishga oid ma'lumotlar o'rin olgan.

Tadqiqotchi izlanuvchilar sohaning yetuk olimlarining fikriga ko'ra “ayol sportchilarning mashg'ulot jarayonida fiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi” e'tirof etilgan. sportchilarning mashg'ulot jarayonida fiziologik ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish zarurligini ta'kidlanadi. mutaxassislar fikriga ko'ra, mashg'ulot jarayonida yuklamalarni turli bosqichlarga mos ravishda taqsimlash va sportchining holatini hisobga olish jismoniy natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

Yakkakurash sport turlarida ayol sportchilar uchun mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishning to'g'ri usullari ularning fiziologik, psixik va jismoniy holatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Ayollarning organizmi erkaklarnikidan

fiziologik jihatdan farq qiladi, shuning uchun yuklamalarni tanlashda va mashg'ulot jarayonini boshqarishda individual yondoshuv talab etiladi.

V.M.Volkov tadqiqotlarida ayollar organizmidagi kuchlilik va chidamlilikning rivojlanishi yakkakurash sport turlari uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. V.M.Volkovning tadqiqotlariga ko'ra, ayol sportchilarning yurak-tomir va nafas olish tizimlari mashg'ulot jarayonida alohida e'tiborga olinishi kerak, chunki bu tizimlar sportda uzoq vaqt davomida chidamli bo'lish va samarali faoliyat ko'rsatish imkonini beradi.

Yuqorida mavzuga aloqador adabiyotlarni o'rganish natijasida to'plangan ulkan tajribaga asoslanib shularni xulosa qilish mumkinki, mashg'ulot jarayonida bosqichma-bosqich berilgan yuklamalarning samaradorligini oshirish, shiddat va hajm miqdorini aniqlash muhimdir. Ushbu ko'rsatkichlar orqali mashg'ulot mezo va makro sikllarida yuklamalarning optimal tuzilishiga erishish mumkin. Bunda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichlaridagi yuklamalar ketma-ketligini hisobga olish kerak.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, qo'yilgan muammolarni hal qilishda quyidagi: Tadqiqot usullaridan foydalanilgan: Ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, umumiy jismoniy va texnik tayyorgarligini aniqlash testlari, pulsometriya, pedagogik tajriba, matematik statistik uslublar haqidagi malumotlar o'rin olgan.

I bosqichida (2021-2022-yil) – to'rt bosqichli menstrual sikl davrlarini inobatga olgan holda malakali bokschi qizlarni tayyorlashda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishga doir maxsus, ilmiy-metodik adabiyotlar, meyyoriy xujjatlar, soxa mutaxassislarining fikr-muloxazalari qiyosiy tahlil qilingan xolda umumlashtirildi.

II bosqichida (2022-2023-yil) – davomida tadqiqotlar mashg'ulot va janglar oralig'ida o'tkazildi. Tadqiqotda bokschilari ishtirok etishdi. O'tkazilgan pedagogik eksperiment mavsumoldi boshida, o'rtada va oxirida nazorat testlari o'tkazildi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikning tuzilishi nazorat va pedagogik testlar kompleksi yordamida baholandi. Nazorat va tajriba guruhi olingan pedagogik testlarning maqsadi olib borilgan mashg'ulot jarayoni samaradorligini aniqlashdan iborat edi.

III bosqichda (2023-2024-yil) – pedagogik tajriba o'tkazildi. Pedagogik tajribaga bokschi qizlar jalb qilindi. Bokschi qizlar uchun mo'ljallangan dasturini ishlab chiqishda ularning mashg'ulotlar tahlili va musobaqalardan olingan natijalar asos bo'ldi.

IV bosqich (2024-2025-yil) – ushbu bosqichda tadqiqotning uchinchi boschiqida sanab o'tilgan ko'rsatkichlarni aniqlash yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tajribalar davomida sportchilar tomonidan qayt etilgan natijalar ilmiy-uslubiy tahlil qilinib, sanab o'tilgan ko'rsatkichlarni rivojlantirish bo'yicha kerakli taklif, xulosalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu bosqichning yakunlovchi qismida yuqori malakali bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish hamda uni amalyotda namoyon qila olishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish yuzasidan belgilangan ishlar bajarilib, tajriba natijalari umumlashtirildi va matematik

statistik metodlar asosida qiyosiy tahlil qilindi hamda keraki xulosalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori malakali bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini qo‘llash mexanizmi”** deb nomlangan uchinchi bobida, 15-16 yoshli bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, 17-18 yoshli bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, yuqori malakali bokschi qizlar organizmining individual xususiyatlari va funksional holatiga moslashtirilgan maxsus mashg‘ulot rejasini ishlab chiqish mohiyati, yuqori malakali bokschi qizlarning sport mahoratini oshirish va organizmni yuqori shiddatga moslashtirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni qo‘llash mohiyati, yuqori malakali bokschi qizlarning musobaqa sharoitidan kelib chiqib umumiy va maxsus vositalari bo‘yicha mashg‘ulot uslubiyatini ishlab chiqishga hamda yuqori malakali bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligida YuQS ko‘rsatkichlari tadqiq qilinganligiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Qolaversa ushbu bobda, bokschi qizlarning mashg‘ulotlarini tashkil qilish hamda mashg‘ulotlar jarayonida bokschi qizlarga beriladigan yuklamalar (shiddati hajmi va me‘yori) yuzasidan metodik ko‘rsatmalar o‘rin olgan.

15-16 va 17-18 yoshli bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligi sport faoliyatida muhim omil hisoblanadi. Aynan ushbu yosh oralig‘ida bokschi qizlarning jismoniy va fiziologik rivojlanishi jadal sur‘atlarda davom etadi, bu esa ularning sportda erishadigan yutuqlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu davrda bokschi qizlarning tanasida mushaklar kuchi, chidamlilik, tezlik va portlovchan kuch kabi ko‘nikmalar shakllanadi va rivojlanadi. Shuningdek, bokschi qizlar uchun texnik va taktik harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda maxsus jismoniy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bokschi qizlarlar uchun tayyorgarlik jarayonida individual yondashuv, yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlash va ularning harakat sifatlarini yaxshilash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. 15-16 yoshli sportchilarda asosiy diqqat mushaklar kuchi va tezlikning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lsa, 17-18 yoshli bokschilarda bu ko‘rsatkichlarga chidamlilik va portlovchan kuchning qo‘shilishi kuzatiladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha olingan testda 15-16 yoshli bokschi qizlarni maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash 8-40 soniya testida maxsus qopda zarbalarini tekshirish bo‘yicha test olindi, Mu.Ma. 46 kg. vaznli bokschi qizimizda yuqori tezlikda berilgan zarbalarning o‘rtacha soni PChK-portlovchi chidamlilik koefitsenti-0,49 past ko‘rsatkichni ko‘rishimiz mumkin. 48 kg. vaznli bokschi qizlarimiz Al.Mu. da bu ko‘rsatkich o‘rtacha soni PChK-portlovchi chidamlilik koefitsenti-0,53 yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilgan bo‘lsa, Ab.Ba. da esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha soni PChK-portlovchi chidamlilik koefitsenti-0,47 past ko‘rsatkichni tashkil qildi (1-jadvalga qarang).

**15-16 yoshli bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari
(8-40 soniyada urilgan zarbalar soni)**

T/r	F.I.	Vazn toifasi	Sport unvoni	PChK	PChI	KIQI	TChK
1	Mu. Ma.	46	SUN	0,49	4,89	104,37	0,58
2	Al. Mu.	48	SUN	0,53	4,72	113,21	0,68
3	Ab. Ba.	48	SUN	0,47	4,54	93,59	0,54
4	Ra. Ro.	50	SUN	0,58	5,03	106,53	0,53
5	Qu. Go'.	50	SUN	0,46	4,57	101,32	0,66
6	Xa. Ni.	52	SUN	0,68	5,43	92,27	0,71
7	Ru. Fa.	54	SUN	0,56	4,24	103,54	0,65
8	Ru. Zu.	54	SUN	0,54	5,22	120,59	0,61
9	Es. Ba.	57	SUN	0,72	4,52	115,24	0,55
10	Er. Cha.	57	SUN	0,51	5,24	119,12	0,68
11	Ma. Se.	60	SUN	0,79	5,93	126,17	0,60
12	Sha. Ru.	60	SUN	0,61	4,71	121,61	0,63
13	To'. Ra.	63	SUN	0,67	4,65	120,77	0,79
14	Tu. As.	66	SUN	0,82	5,59	101,34	0,71
15	Qu. Ra.	66	SUN	0,64	5,23	94,16	0,47
16	Be. Xa.	70	SUN	0,91	5,97	115,09	0,78
17	Tu. Sa.	70	SUN	0,68	5,32	135,27	0,74
18	Ya. Ma.	75	SUN	0,97	6,07	127,93	0,62
19	Ab. Ma.	80	SUN	0,84	5,64	130,05	0,94
20	Ab. Ni.	+80	SUN	0,79	5,88	117,39	0,86

Izoh: PChK - portlovchi chidamlilik koeffitsenti, PChI - portlovchi chidamlilik indeksi, KIQI - kreatinfosfat ishlash qobilyati indeksi, TChK - tezkor chidamlilik koeffitsenti.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha olingan testda 17-18 yoshli bokschi qizlarni maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash testida maxsus qopda signal orqali berilgan zarbalar soni tekshirish bo'yicha test olindi, Mu.Ra. 52 kg. vaznli bokschi qizimizda, yuqori tezlikda berilgan zarbalarining o'rtacha soni PKBZ-past kuchlanishda berilgan zarba-107,39 past ko'rsatkichni ko'rishimiz mumkin. 48 kg. vaznli G'a.Gu. da esa bu natija PKBZ-past kuchlanishda berilgan zarba-65,14 yuqori ko'rsatkichdan iborat bo'ldi (2-jadvalga qarang).

Ol.Fa. 57 kg. vaznli bokschi qizimizda yuqori tezlikda berilgan zarbalarining o'rtacha soni YKBZ-yuqori kuchlanishda berilgan zarba-160,85 past ko'rsatkichni tashkil etdi. 81 kg. vaznli Pa.Ru. da esa bu natija YKBZ-yuqori kuchlanishda berilgan zarba-239,44 yuqori ko'rsatkichni egaladi.

Is.Od. va Ba.Si. bokschi qizlarimizda yuqori tezlikda berilgan zarbalarining o'rtacha soni BZA-berilgan zarbalar aniqligi-83,33% ni tashkil qildi va yuqori natijaga 2 nafar bokschi qizlarimiz erishdilar.


**17-18 yoshli bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari
(signal orqali berilgan zarbalar soni)**

T/r	F.I.	Vazn toifasi	Sport unvoni	PKBZ	YKBZ	BZA %
1	G'a. Gu.	48	SU	65,14	175,08	75,00
2	To. Ja.	48	SUN	76,52	169,41	66,67
3	Ba. Ro.	50	SU	74,29	174,52	66,67
4	Yu. Zi.	50	SUN	80,17	163,42	66,67
5	Tu. Mu.	52	SUN	71,45	167,78	66,67
6	Mu. Ra.	52	SUN	107,39	162,26	50,00
7	Sha. Fe.	54	SUN	71,74	178,11	66,67
8	Ti. Gu.	54	SUN	79,36	165,09	66,67
9	Ib. Mu.	57	SUN	77,56	170,98	50,00
10	Ol. Fa.	57	SUN	72,24	160,85	66,67
11	Is. Od.	60	SU	68,37	177,61	83,33
12	On. Di.	60	SUN	78,49	175,37	66,67
13	Ba. Si.	63	SU	67,21	174,21	83,33
14	Ab. Ma.	63	SUN	75,18	181,38	66,67
15	Sa. Ay.	66	SUN	77,02	186,03	66,67
16	To. Oy.	70	SU	66,59	195,56	75,00
17	Bo. Sa.	75	SU	70,52	202,11	66,67
18	Pa. Ru.	81	SU	67,03	239,44	75,00
19	Sa. Ol.	81	SU	68,89	221,34	66,67
20	Sha. So.	+81	SU	69,01	235,77	75,00
21	Ba. Sho.	+81	SUN	72,11	218,91	66,67

Izoh: PKBZ – past kuchlanishda berilgan zarba, YKBZ – yuqori kuchlanishda berilgan zarba, BZA – berilgan zarbalar aniqligi (%).

Yuqori malakali bokschi qizlar organizmining individual xususiyatlari va funksional holatiga moslashtirilgan maxsus mashg'ulot rejasining asosiy maqsadi — umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, raqibga qarshi texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish, optimal nevropsixik holatni shakllantirish, bokschi qizlarni murakkab janglarga har tomonlama tayyorlash hamda g'alabaga intilishni kuchaytirishdan iborat.

Mazkur jarayonda pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli vosita va usullaridan foydalanish, shuningdek, sportchining yuqori ish qobiliyatini ta'minlash va uni butun musobaqa davomida barqaror saqlab qolish uchun vitamin komplekslaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, yuqori malakali bokschi qizlar organizmining individual xususiyatlari va funksional holatiga sinxiron holda moslashtirilgan maxsus mashg'ulot rejasini qo'llash batafsil ifoda etildi.



1- rasm. Yuqori malakali bokschi qizlar organizmining individual xususiyatlari va funksional holatiga moslashtirilgan maxsus mashg'ulot rejasini



Yuqori malakali bokschi qizlarning sport mahoratini oshirish va organizmni yuqori shiddatga moslashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar yig'ini rejasi

Kun	Vaqt	Mashg'ulot joyi	Mashg'ulot mazmuni
			Kelish kuni
Yakshanba 25.06.23 y.	12.00-15.00	“Yangiobod dam olish uyi” mehmonxona	O'quv-mashq yig'inni qatnashchilari, sportchilari va trenerlarining kelishi, joylashtirilishi.
	16.00-17.30	Boks zali	Saflanish, URM-10 daqiqa, boks maktabi-4 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, raundgacha qo'llarda polga bukib yozish-20 marta, basketbol o'yini-2 x 20 daqiqadan, arg'amchoq va tennis koptogi bilan mashq bajarish-10 daqiqa, yakunlovchi gimnastika mashqlari-10 daqiqa.
	18.00-19.00	Dam olish xonasi	Trenerlar va sportchilarning umumiy yig'ilishi, yig'in vazifalarini qo'yish, vazifalarni taqsimlash, yig'in rejasini muhokama qilish va tasdiqlash.
Dushanba 26.06.23 y.	07.30-08.00	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, kun vazifasini belgilash, sayr qilish.
	10.00-11.30	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, URM-5 daqiqa, shaharcha atrofida 1 aylana yugurish (o'rtacha tezlikda), boks maktabi-4 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, raundgacha qo'llarda poldan bukib yozish-30 marta, yakunlovchi gimnastika mashqlari-10 daqiqa.
	17.00-19.15	Boks zali	Saflanish, URM-10 daqiqa, MTM-15 daqiqa, soya bilan jang-2 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, trener bilan yassi qo'lqopda individual “lapa”da ishlash, TTMT-10 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, 1-8 raunddan juftlik bilan vazifa bo'yicha ishlash, 9-10 raunddan juftlikda shartli jang, arg'amchoq va tennis koptogi bilan mashq bajarish-10 daqiqa, yakunlovchi gimnastika mashqlari-10 daqiqa davomida qorin pressini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar.
Seshanba 27.06.23 y.	07.30-08.00	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, kun vazifasini belgilash, sayr qilish.
	10.00-11.30	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, URM-5 daqiqa, shaharcha atrofida 1 aylana yugurish (o'rtachadan past tezlikda), boks maktabi-4 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, soya bilan jang-2 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, UJT bo'yicha nazorat me'yorlari, tezlikka oid mashqlar yugurish-30m, 60m, 100m ga yugurish, yadro uloqtirish va turnikda tortinish.

3-jadval davomi

	17.00-19.15	Boks zali	Saflanish, URM-10 daqiqa, MTM-15 daqiqa, soya bilan jang-2 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, trener bilan yassi qo‘lqopda individual “lapa”da ishlash, TTMT-10 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan boks qopiga zarbalar berish, arg‘amchoq va tennis koptogi bilan mashq bajarish-10 daqiqa, yakunlovchi gimnastika mashqlari-10 daqiqa davomida qorin pressini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar.
Chorshanba 28.06.23 y	07.30-08.00	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, kun vazifasini belgilash, sayr qilish.
	10.00-11.30	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, URM-5 daqiqa, shaharcha atrofida 1,5 aylana yugurish (o‘rtacha tezlikda), raqiblar bilan kuch mashqlari-15 daqiqa, boks maktabi 4 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, UJT bo‘yicha nazorat me‘yorlari, tezlikka oid mashqlar yugurish-10x10 metr, 10x20 metr ga yugurish, chap o‘ng oyoqda va birgalikda sakrash.
	17.00-19.15	Boks zali	Saflanish, URM-10 daqiqa, MTM-15 daqiqa, soya bilan jang-2 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, trener bilan yassi qo‘lqopda individual “lapa”da ishlash, TTMT-10 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan 1-8 raunddan juftlik bilan vazifa bo‘yicha ishlash, 9-10 raunddan juftlikda shartli jang, arg‘amchoq va tennis koptogi bilan mashq bajarish-10 daqiqa, yakunlovchi gimnastika mashqlari-10 daqiqa davomida qorin pressini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar.
Payshanba 29.06.23 y	07.30-08.00	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, kun vazifasini belgilash, sayr qilish.
	10.00-11.30	Boks zali	Saflanish. URM-10 daqiqa, regbi o‘yini-2 x 30 daqiqadan, soya bilan jang-1 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, trener bilan yassi qo‘lqopda individual “lapa”da ishlash, tennis koptogi bilan mashq bajarish-10 daqiqa, yakunlovchi gimnastika mashqlari-10 daqiqa davomida qorin pressini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar.
Juma 30.06.23 y.	07.30-08.00	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, kun vazifasini belgilash, sayr qilish.
	10.00-11.30	Favvora yonidagi maydonda	Saflanish, URM-10 daqiqa, shaharcha atrofida 1,5 aylana yugurish (o‘rtacha tezlikda), boks maktabi-4 raund x 3 daqiqa 20 soniyadan, raundgacha qo‘llarda polga bukib yozish-40 marta, UJT bo‘yicha nazorat me‘yorlari, tezlikka oid mashqlar yugurish-5x20 metr, 5x30 metr ga yugurish, chap o‘ng oyoqda va birgalikda sakrash.

Izoh: URM – umumiyrivojlantirovchi mashqlari, MTM – maxsus tayyorgarlik mashqlari, TTMT – texnik-taktik mahoratini takomillatirish, UJT– umumiy jismoniy tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik va jangovar mahoratni rivojlantirishga qaratilgan murakkab mashg'ulotlar tizimi quyidagicha ifodalangan:

Saflanish: Bokschilarni qisqa muddatli yuqori intensivlikda ishlashga tayyorlash maqsadida, 10 daqiqalik URM (Uyg'unlashtirilgan Rangli Mashq) va 15 daqiqalik MTM (Maxsus Trening Mashqi) bo'lib, bu mashqlar soya bilan jang qilishni o'z ichiga oladi. Birinchi raundda 3 daqiqalik va 20 soniyalik bir nechta zarbalarni bajarish va himoyalanih.

Qo'lqopsiz sherigi bilan jang qilish: Jangovar holatni taqlid qilish va jangda o'zini qanday tutish kerakligini o'rgatadigan mashq. Birinchi raundda 3 daqiqa davomida qo'lqopsiz jang qilish bilan himoyalanih va turli zarbalarni bajarish.

Trener bilan individual "lapa"da ishlash: Trener yordamida jangovar holatni tahlil qilish va zarbalarni to'g'ri va aniq bajarish. Bu mashqda, o'quvchi yassi qo'lqopda individual ishlashni amalga oshiradi.

Juftlik bilan ishlash (TTMT): Jangovar texnikalarni mustahkamlash, ikki shaxs o'rtasida maqsadli va ixtisoslashtirilgan vazifalar bo'yicha ishlashni o'z ichiga olgan 12 raundlik mashq. Har bir raundda 3 daqiqa davomida ishlanadi va 20 soniya davomida dam olish imkoniyati taqdim etiladi.

Shartli va erkin janglar: 9-10 raundlarda juftlik bilan shartli janglar, 11-12 raundlarda esa erkin janglar. Bu janglarda turli xil taktikalar va texnikalar sinovdan o'tkaziladi.

Arg'amchoq va tennis koptogi bilan mashq bajarish: Jismoniy holatni va muvozanatni yaxshilash, zarbalarni aniqlash va koordinatsiyani rivojlantirish uchun 10 daqiqa davomida arg'amchoq va tennis koptogi bilan mashqlar bajariladi.

Yakunlovchi gimnastika mashqlari: Jismoniy tayyorgarlikni yakunlash va qorin pressini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar. Bu mashqlar 10 daqiqa davomida bajarilib, o'quvchini to'liq jismoniy holatga keltirishga yordam beradi.

Bu kompleks mashqlar tizimi sportchi yoki jangchi uchun maksimal tayyorgarlikni ta'minlaydi va barcha jismoniy va jangovar ko'nikmalarni yaxshilashga yordam beradi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha olingan testda 15-16 yoshli bokschi qizlarni maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash 8-40 soniya testida maxsus qopda zarbalarini tekshirish bo'yicha test olindi, Mu.Ma. 46 kg. vaznli bokschi qizimizda yuqori tezlikda berilgan zarbalarning o'rtacha soni PChK-portlovchi chidamlilik koeffitsenti-1,29 yuqori ko'rsatkichni ko'rishimiz mumkin. 48 kg. vaznli bokschi qizlarimiz Al.Mu. da bu ko'rsatkich o'rtacha soni PChK-portlovchi chidamlilik koeffitsenti-1,15 past ko'rsatkichni tashkil qilgan bo'lsa, Ab.Ba. da esa bu ko'rsatkich o'rtacha soni PChK-portlovchi chidamlilik koeffitsenti-1,02 past ko'rsatkichni tashkil qildi (4-jadvalga qarang).

**15-16 yoshli bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari
(8-40 soniyada urilgan zarbalar soni) (tajribadan so'ng)**

T/r	F.I.	Vazn toifasi	Sport unvoni	PChK	PChI	KIQI	TChK
1	Mu. Ma.	46	XTSU	1,29	7,05	158,11	1,56
2	Al. Mu.	48	SU	1,15	6,86	143,57	1,32
3	Ab. Ba.	48	SU	1,02	6,67	140,19	1,18
4	Ra. Ro.	50	SU	1,21	7,38	155,15	1,44
5	Qu. Go'.	50	SUN	1,09	6,81	146,68	1,12
6	Xa. Ni.	52	SU	1,32	7,78	165,22	1,67
7	Ru. Fa.	54	SU	1,49	7,55	167,09	1,87
8	Ru. Zu.	54	SU	1,22	6,71	159,54	1,75
9	Es. Ba.	57	SUN	1,74	8,03	168,08	1,97
10	Er. Cha.	57	SUN	1,59	7,93	170,53	2,01
11	Ma. Se.	60	XTSU	2,24	8,35	187,91	2,49
12	Sha. Ru.	60	SU	1,88	7,53	176,39	2,26
13	To'. Ra.	63	SUN	1,61	6,71	160,33	2,04
14	Tu. As.	66	SU	1,83	7,45	172,87	2,11
15	Qu. Ra.	66	SU	1,57	7,19	171,81	2,19
16	Be. Xa.	70	SU	1,95	7,62	181,59	2,57
17	Tu. Sa.	70	SU	2,03	7,94	174,81	2,93
18	Ya. Ma.	75	XTSU	2,76	8,89	182,05	2,98
19	Ab. Ma.	80	SU	2,41	7,82	176,18	2,91
20	Ab. Ni.	+80	SU	2,63	7,51	179,73	2,84

Izoh: PChK - portlovchi chidamlilik koeffitsenti, PChI - portlovchi chidamlilik indeksi, KIQI - kreatinfosfat ishlash qobiliyati indeksi, TChK - tezkor chidamlilik koeffitsenti.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha olingan testda 17-18 yoshli bokschi qizlarni maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash testida maxsus qopda signal orqali berilgan zarbalar soni tekshirish bo'yicha test olindi, Ti.Gu. 54 kg. vaznli bokschi qizimizda maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash testida maxsus qopda signal orqali berilgan zarbalar soni tekshirish bo'yicha test olindi, yuqori tezlikda berilgan zarbalarning o'rtacha soni PKBZ-past kuchlanishda berilgan zarba-98,15 past ko'rsatkichni ko'rishimiz mumkin. 60 kg. vaznli Is.Od. da esa bu natija PKBZ-past kuchlanishda berilgan zarba-56,49 yuqori ko'rsatkichdan iborat bo'ldi.

Ib.Mu. 57 kg. vaznli bokschi qizimizda maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash testida maxsus qopda signal orqali berilgan zarbalar soni tekshirish bo'yicha test olindi, yuqori tezlikda berilgan zarbalarning o'rtacha soni YKBZ-yuqori kuchlanishda berilgan zarba-170,12 past ko'rsatkichni tashkil etdi. +81 kg. vaznli Sha.So. da esa bu natija YKBZ-yuqori kuchlanishda berilgan zarba-256,87 yuqori ko'rsatkichni egaladi (5-jadvalga qarang).

Maxsus jismoniy tayyorgarligini aniqlash testida maxsus qopda signal orqali berilgan zarbalar soni tekshirish bo'yicha test olindi, yuqori tezlikda berilgan zarbalarining o'rtacha soni BZA-berilgan zarbalar aniqligi-90,00% ni tashkil qildi va yuqori natijaga 4 nafar bokschi qizlarimiz erishdilar.

5-jadval

**17-18 yoshli bokschi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari
(signal orqali berilgan zarbalar soni) (tajribadan so'ng)**

T/r	F.I.	Vazn toifasi	Sport unvoni	PKBZ	YKBZ	BZA %
1	G'a. Gu.	48	XTSU	59,23	189,01	83,33
2	To. Ja.	48	XTSU	66,08	181,57	90,00
3	Ba. Ro.	50	SU	63,47	183,11	75,00
4	Yu. Zi.	50	SU	61,79	179,48	83,33
5	Tu. Mu.	52	SU	64,23	180,01	83,33
6	Mu. Ra.	52	SU	91,05	176,24	75,00
7	Sha. Fe.	54	SU	63,18	189,35	83,33
8	Ti. Gu.	54	SU	98,15	183,14	75,00
9	Ib. Mu.	57	SU	64,29	170,12	66,67
10	Ol. Fa.	57	SU	63,95	178,19	75,00
11	Is. Od.	60	XTSU	56,49	193,58	83,33
12	On. Di.	60	SU	64,87	186,67	75,00
13	Ba. Si.	63	SU	58,65	206,01	83,33
14	Ab. Ma.	63	SU	66,01	195,77	75,00
